

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**XADJIMUXAMETOVA MATLUBA ADILOVNA**

**SARALASH STANSIYASINING TEXNIK VA TEXNOLOGIK  
PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA TRANSPORT  
JARAYONLARINING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

**05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the abstract Doctoral (DSc) Dissertation**

**Xadjimuxametova Matluba Adilovna**

Saralash stansiyasining texnik va texnologik parametrlarini optimallashtirish asosida transport jarayonlarining innovatsion texnologiyalari ..... 3

**Хаджимухаметова Матлуба Адиловна**

Инновационные технологии транспортных процессов на основе оптимизации технических и технологических параметров сортировочной станции ..... 29

**Khadhimukhametova Matluba Adilovna**

Innovative technologies of transport processes based on optimization technical and technological parameters of the sorting station ..... 55

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 59

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.15/31.08.2022.T.73.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**XADJIMUXAMETOVA MATLUBA ADILOVNA**

**SARALASH STANSIYASINING TEXNIK VA TEXNOLOGIK  
PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA TRANSPORT  
JARAYONLARINING INNOVASION TEXNOLOGIYALARI**

**05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

Fan doktori (DSc) dissertasiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.DSc/T405 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Aripov Nazirjan Mukaramovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Raxmangulov Aleksandr Nelyevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Fayzibayev Sherzod Sabirovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Muxamedjanova Ayjan Vesmovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent  
axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi PhD.15/31.08.2022.T.73.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil 12 avgust soat 15<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'chilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: [rektorat@tstu.uz](mailto:rektorat@tstu.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (116 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent sh., Temiryo'chilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil 31 avgust kuni tarqatildi.  
(2023 yil 30 avgustdagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



**J.F. Kurbanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d. (DSc), professor

**Sh.M.Suyunbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
t.f.d. (DSc), professor

**D.X. Baratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
t.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda transport turlarining o‘zaro hamkorligini samarali tashkil etish va logistik xizmatlarni takomillashtirish asosida yuk tashish ishlarining istiqbolda kutilayotgan hajmiga muvofiq ravishda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha dastlabki chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularni texnik-iqtisodiy baholashda zamonaviy texnologiya va usullarning qo‘llanilishiga alohida e‘tibor berilmoqda. Jahon miqyosida “... yuk tashish jarayonini boshqarishning umumiy masalalaridagi jami vaqtning taxminan 55 % ni saralash stansiyalarida tranzit vagonlarni qayta ishlanishini boshqarishiga to‘g‘ri kelganligi sababli....<sup>1</sup>”, saralash stansiyalarining o‘tkazuvchanlik va qayta ishlash qobiliyatlaridan samarali foydalanishni tubdan yaxshilash, texnologiyalarni takomillashtirish hamda innovasion texnik vositalar va texnologiyalarni joriy etish zarurati paydo bo‘lgan. Shunga muvofiq ravishda, saralash stansiyalarini rivojlantirish va ularning ishini takomillashtirish, saralash qurilmalarining texnik jihozlanishini rivojlantirish hamda magistral va sanoat temir yo‘l stansiyalarining texnologiyalari xususiyatlarini inobatga olgan holda, tarkiblarni saralash tezligini rostdash asosida vagonlarni saralash tepaligidan tushirish va tormozlashning turli tartiblarini boshqarish imkonini beruvchi vagonlarni saralash jarayonlarini mexanizatsiyalash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda tortuv-tirkama agregatlarini masofadan boshqarish tizimlarini ishlab chiqish, texnologik marshrutlarni tayyorlash jarayonlarini avtomatlashtirish, manevr lokomotivlarining yuklanganlik darajasini kamaytirish, temir yo‘l stansiyalarini strelkali o‘tkazgich va signallarni boshqarishning zamonaviy qurilmalari bilan jihozlashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda ustuvor hisoblangan qator tadqiqotlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, saralash qurilmalari infrastrukturasi zamonaviy texnik vositalardan, fan va axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda ilg‘or ilmiy usullar asosida rivojlantirgan holda saralash tepaligining bandlik darajasini kamaytirish va vagonlarni qayta ishlash bo‘yicha texnologik amallarni bajarishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish masalalari muhim hisoblanadi. Bunda saralash tepaligi profilini optimallashtirish, saralash va yuk stansiyalarida manevr ishlarini modellashtirish uslubiyatini ishlab chiqish, vagonlarni qayta ishlashdagi kinetik energiyani jamlashning innovasion texnologiyasini hamda saralanishga kelayotgan poyezdlarning rekuperativ tormozlanishining optimal parametrlari va texnologiyasini izlash asoslangan saralash tepaligi ishining funktsionalligi va qayta ishlash qobiliyatini oshirish imkonini beruvchi dasturiy ta‘minotni joriy etish dolzarb masalalarning biri hisoblanadi.

Respublikamizda temir yo‘l sohasini jadal rivojlantirish, yangi temir yo‘l magistralarini qurish, elektrlashtirilgan yo‘llar ulushini ko‘paytirish,

---

<sup>1</sup>[https://miit.ru/content/%D0%94%D0%B8%D1%81%D1%81%D0%B5%D1%80%D1%82%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F%20%20%D0%A8%D0%B5%D0%BD%D1%84%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D0%B4.pdf?id\\_wm=720935](https://miit.ru/content/%D0%94%D0%B8%D1%81%D1%81%D0%B5%D1%80%D1%82%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F%20%20%D0%A8%D0%B5%D0%BD%D1%84%D0%B5%D0%BB%D1%8C%D0%B4.pdf?id_wm=720935).

mamlakatimizning tashqi savdo yuklarini asosiy jahon va mintaqaviy bozorlarga chiqarish uchun xalqaro transport yo‘laklari miqyosini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish, moslashuvchan tarif siyosatini qo‘llash borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda, va bu borada ma‘lum natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish ..., transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish ..., transport sohasida tashqi savdo uchun “yashil yo‘laklar” hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish ..., xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish”<sup>2</sup> bo‘yicha muhim maqsadlar belgilab berilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda, jumladan, saralash tepaligining optimal parametrlarini izlash usullari, algoritmlari va instrumental vositalarini ishlab chiqish, amaliy masalalar asosida vagonlarni qayta ishlash stansiyalarida mahalliy poyezdlarni shakllantirish va jo‘natish, shuningdek tarkiblarni saralash sharoitlari va har bir uzilmaning xususiyatlarini hisobga olgan holda transport jarayonlarining innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 2-dekabrda “2018-2022 yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3422-sonli, 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4422-sonli, 2020-yil 10-iyuldagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik”, ITD-3 – “Energetika, energiya, resurs tejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” kabi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertasiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Saralash

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони

<sup>3</sup> <https://wsu.edu/>, <https://www.ncl.ac.uk/newrail/people/tsg/>, <https://www.bg.ac.rs/en/>, <http://en.njtu.edu.cn/>, <https://www.curtin.edu.au/about/history-facts/history/curtin-university-of-technology/>, <http://www.iitkgp.ac.in/>, <https://www.tu-braunschweig.de/>, <https://rut-miit.ru>, <http://www.pgups.ru/>, [www.diiit.edu.ua](http://www.diiit.edu.ua), <https://www.bsut.by/>, <https://alt.edu.kz/>, <https://tstu.uz>

stansiyalarining ish ko'rsatkichlarini yaxshilashga va vagonlarni qayta ishlashning texnologik jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar qator mamlakatlarning yetakchi ilmiy markazlari, universitet va ilmiy-tadqiqot institutlarida, jumladan: Washington State University (AQSH), Newcastle Centre for Railway Research University (Buyuk Britaniya), Curtin University of Technology (Avstraliya), University of Belgrade (Cerbiya), Beijing Jiaotong University (Xitoy), Indian Institute of Technology Kharagpur (Hindiston), Technische Universitat Carolo-Wilhelmina zu Braunschweig (Germaniya), Rossiya transport universiteti (Rossiya), Peterburg davlat temir yo'l universiteti (Rossiya), Dnepropetrovsk milliy temir yo'l transporti universiteti (Ukraina), Belorussiya davlat transport universiteti, Logistika va transport akademiyasi (Qozog'iston), Toshkent davlat transport universiteti (O'zbekiston) va boshqalarda keng ko'lamda olib borilmoqda.

Jahonda saralash qurilmalarini ishlatishning nazariyasini va amaliyotini rivojlantirish bo'yicha dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan, xususan balkali vagon sekinlatgichlar ishlab chiqilgan (Hindiston), temir yo'l saralash va yuk stansiyalarining qayta ishlash qobiliyatini oshirish tizimi takomillashtirilgan (Kanada), vagonlarni yuk ob'yektlariga yetkazib berish uchun boshqaruvchisi bo'lmagan lokomotivlar joriy etilgan (Rossiya), vagonlarni uzilmalarga surib berishi uchun tortuvchi agregatlar ishlab chiqilgan (Germaniya), vagonlarni tormozlash qurilmalarining energiya sarfini kamaytirish uchun quyosh energiyasidan foydalanish tizimlari yaratilgan (AQSH, Xitoy).

Dunyoda magistral va sanoat temir yo'l stansiyalarida saralash ishlarini bajarishda vagonlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha bajarilgan bir qator asosiy yo'nalishlardagi, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy-tadqiqot ishlari: poyezdlarni saralash jarayonining monitoringi va baholash usullarini takomillashtirish, uzilmalarning tormozlanishini boshqarishda sun'iy intellektga asoslangan usullarni qo'llash, yuklamasi turli hil bo'lgan vagon guruhlarini tarqatish tezligini rostdash tizimini ishlab chiqish va tashish jarayonining saralash ishlarida vagonlarning me'yoridan ortiq turish vaqtini kamaytirish bo'yicha olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Magistral va sanoat temir yo'l stansiyalarida saralash ishlarini tashkil etish nazariyasini ishlab chiqish bo'yicha jahondagi yirik tadqiqotchilar, jumladan, V.N.Obrazsov, S.D.Koreysha, YE.A.Gibshman, S.V.Zemblinov, S.G.Pisarev, P.V.Bartenev, F.P.Kochnev, I.I.Savchenko, V.D.Nikitin, N.I.Fedotov, N.R.Yushenko, I.I.Strakovskiy, L.B.Tishkov, YU.A.Muxa, V.I.Bobrovskiy, V.L.Arnold, YE.V.Arhangelskiy, I.V.Berestov, S.A.Bessonenko, M.G.Dashkov, S.V.Karasev, A.A.Klimov, X.T.Turanov, V.YE.Pavlov, N.V.Pravdin, T.S.Banek, VYA.Negrey, S.A.Pojidayev, A.G.Savitskiy, N.I.Fedotov, A.N.Frolov, Qingyong Y. Li, Weiwei W. Fang, Ruifang Tang, Ziyulong Wang, Milica Micic, Zdenka Popović, Brendan Murphy, Laurie Williams, V.N.Sheluxin, V.G.Shubko, I.Yefimenko, V.M.Akulnichev, M.N.Lugovsov, S.N.Shmal va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Yurtimizda bir qator olimlar yuk poyezdlari harakatini o'zgarmas grafik asosida tashkil etish, terminal va uchastkalarda vagonlar oqimini tashkil etishda tezkor rejalashtirish, tarkiblarni tarqatishda temir yo'l avtomatika va telemexanikasining zamonaviy qurilmalarini rivojlantirish, shuningdek avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini rivojlantirish hisobiga temir yo'l transportini ishlatish ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Jumladan I.I.Ibragimov, S.S.Maskel, N.M.Aripov, A.Sh.Shorustamov, R.Y.Abdullayev, J.F.Kurbanov, Sh.M.Suyunbayev, A.A.Svetashev, D.B.Butunov, Sh.U.Saidivaliyev, Sh.B.Djabbarov va boshqalar bu sohada turli yillarda o'z tadqiqotlari asosida ijobiy natijalarga erishganlar.

Ushbu sohada yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan bo'lsada, saralash stansiyalarining va tepaliklarining ishini boshqarishdagi avtomatlashtirilgan tizimni va loyihalashning zamonaviy usullarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy muammolar yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur dissertasiya ishida stansiyaga kelgan poyezdlarni qabul qilishda energiya samarali texnik va texnologik yechimlar; saralash tepaliklarining funksional va texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, saralash tepaliklarini loyihalash uchun Braxistoxron egriliklarni qo'llanilishi; turli turkumdagi vagonlarning ruxsat etilgan eng yuqori tezlik bilan saralash tepaligidan harakatlanishini ta'minlash uchun, uning profilini optimallashtirish asosida transport jarayonlarining innovasion texnologiyalari; saralash tepaligining saralash yo'llarida tormozlash tartibini takomillashtirilishi; transport vositalarini qayta ishlashning jadalligini ta'minlash uchun yuk terminallari va stansiyalari tutashgan saralash stansiyasining o'zaro ta'sir etuvchi parametrlarini optimallashtirilishi taklif etilgan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan 2303-01/03/06/2019 "O'zbek metallurgiya kombinati" AJ yangi logistik markazining terminalini qayta ishlash qobiliyatini tadqiq etish" (2019-2020), "O'TY" AJda №1 "Signallashtirish va aloqa" Boshqarmasining radioaloqani me'yoriy-texnik xujjatlarini yangilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish № 587-78/17 Innovasion usullar asosida Chuqursoy temir yo'l stansiyasining faoliyatini takomillashtirish (2021) mavzulari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** saralash stansiyasining texnik va texnologik parametrlarini optimallashtirish asosida transport jarayonlarining innovasion texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

stansiyaga kelgan poyezdlarni qabul qilishda energiya samarali texnik va texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

saralash tepaliklarini loyihalashni takomillashtirishning, saralash stansiyalarida yuklarni tashishni texnik va texnologik ta'minlashning zamonaviy holatini tizimli tahlil etish va mavjud muammolarini o'rganish;

saralash tepaliklarining funksional parametrlarini aniqlashning mavjud usullarini va nazariy asoslarini tadqiq etish;

saralash tepaliklarini loyihalash uchun ularning funksional va texnologik

xususiyatlarini hisobga olgan holda, Braxistoxron egriliklarining qo'llanilish zaruriyatini asoslash;

turli turkumdagi vagonlarning ruxsat etilgan eng yuqori tezlikda saralash tepaligidan harakatlanishini ta'minlash uchun saralash tepaligi profilini optimallashtirish asosida transport jarayonlarining innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish;

saralash tepaligi osti yo'llarida tormozlash tartibini takomillashtirish;

transport vositalarini qayta ishlashni jadallashtirish uchun saralash stansiyalariga birikkan stansiyalar va yuk terminallari hamkorligini ta'minlovchi parametrlarni optimallashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida saralash stansiyalari va saralash qurilmalarining infratuzilmasi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida transport jarayonlarining innovasion texnologiyalari, saralash stansiyalarining texnik va texnologik parametrlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va matematik statistika, ehtimollar, ommaviy xizmat ko'rsatish, transport oqimlarini boshqarish, neyron tizimi, shuningdek transport logistikasi nazariyalaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

siqilgan havoni to'plash hisobiga saralash stansiyasining qabul qilish parkiga kelgan poyezdning yo'qotgan kinetik energiyasini rekuperatsiya rejimini qo'llash asosida elektr, shuningdek pnevmatik energiyaga o'zgartirishning innovasion texnologiyasi yaratilgan;

Braxistoxron egriliklar asosida turli turkumdagi vagonlar mumkin bo'lgan eng katta tezlikda saralash tepaligidan harakatlanishini hisobga olgan holda uning profilini optimallashtirish usuli takomillashtirilgan;

Bellman optimallik mezonlari asosida saralash tepaligi profilining vagonlar harakatini tezlatish elementlarini me'yorlashning yangicha yondashuvi tushish qismi qiyaliklarining ketma-ketlikda pasayish shartini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan;

saralash parkida vagonlarni tormozlash qurilmasi saralanuvchi uzilmaning og'irligi hamda qurilmaning harakatlantiruvchi dastagi roligida maksimal kuchlanishni hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

saralash stansiyasining mahalliy vagon oqimlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatini matematik modellari uzatuvchi poyezdlarning optimal sonini hisobga olgan holda keltirilgan harajatlarni minimallashtirish asosida ishlab chiqilgan;

shahar logistikasi tizimida saralash va yuk stansiyalari hamkorligining ilg'or usuli mahalliy yuklarni iste'molchilarga muddatida yetkazib berish talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

saralash stansiyasiga qayta ishlash uchun qabul parkiga kelgan poyezdlarning rekuperativ tormozlanishi pnevmatik energiyasini to'plash tizimi yaratilgan;

saralash yo'llarida vagonlarning yetib borish masofasini hisobga olgan holda saralash tepaligining optimal parametrlarini, shuningdek poyezdlarni tuzishda qayta saralanadigan vagonlarning sonini va ish ko'lamini izlashning algoritmi va

instrumental vositalari ishlab chiqilgan;

tepalikning qayta ishlash qobiliyatini oshirish maqsadida saralash yo‘llarining to‘lishini hisobga olgan holda uzilmalarning kinematik parametrlari haqidagi ma’lumotlar asosida saralash stansiyasining texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish tizimi takomillashtirilgan;

vagonlar tezlashedigan yo‘llarining elementlarini to‘g‘rilash uchun Braxistoxron egriliklari asosida “Chuqursoy” stansiyasidagi saralash tepaligining tushish qismi profilining asosiy parametrlari belgilangan va asoslangan (“O‘TY” AJning 17.10.2022 yildagi 526-sonli buyrug‘i);

shaharda joylashgan yuk terminallariga vagonlarni va konteynerlarni uzatish talablarini hisobga olgan holda, saralash stansiyasida mahalliy poyezdlarni tuzish va jo‘natishning modellari, algoritmlari va dasturiy vositalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usullar va qonunlar asosida nazariy tadqiqotlar olib borilganligi, ishlab chiqilgan matematik model va dasturlar asosida olingan, tarkiblarni tarqatish va uzilmalarning dumalash davomiyligining hisobiy ko‘rsatkichlarning natijalariga mosligi, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati transport jarayonlari texnologiyalarining, tizim elementlarining qayta ishlash qobiliyatini oshirish va yuklarni konteyner va vagonlarda o‘z vaqtida va sifatli yetkazib berish bo‘yicha optimal yechimlarni izlash hisobiga saralash tepaliklarning, terminallarning va turli transport vositalarning unumdorligini oshirishga imkoniyat beruvchi, ruxsat etilgan tezlik bilan turli turkumdagi vagonlarning dumalashning tezlanishi uchun saralash tepaligi profilini optimallashtirish, modellari, algoritmlari va ilmiy-nazariy asoslari olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati saralash tepaligining qayta ishlash qobiliyatini oshirish, saralash yo‘llarida vagonlarning dumalash masofasini uzaytirish, vagonlarni qayta saralanishini kamaytirish, saralash ishlarining xavfsizlik darajasini oshirish va shu bilan birga saralash tepaligining faoliyatini oshirishga imkoniyat beradigan saralash tepaligi parametrlarining optimal qiymatlarini izlashning instrumental vositalarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Saralash stansiyasining texnik va texnologik parametrlarini optimallashtirish asosida transport jarayonlarining innovasion texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

saralash tepaligi bo‘ylama profilining optimal parametrlarini izlashning algoritmlari va instrumental vositalari “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 26 may 2023 yildagi 2/3463 sonli ma’lumotnomasi). Natijada tizim elementlarining qayta ishlash qobiliyatini oshirish bo‘yicha yechimlarni optimal izlash hisobiga, saralash tepaligining, yuk terminallarining va turli transport vositalarining unumdorligini oshirishga imkoniyat beruvchi, ruxsat etilgan eng katta tezlikda turli turkumdagi

vagonlarning saralash tepaligidan harakatlanishi uchun uning profilini optimallashtirishga erishilgan;

pnevmatik energiyani to'plash tizimi "O'zbekiston temir yo'llari" AJning Chuqursoy saralash stansiyasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 26 may 2023 yildagi 2/3463 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tizim qabul qilish parkiga kelgan poyezd tomonidan tormozlash jarayonida hosil qiladigan kinetik energiyasini to'plash hisobiga tejamkorlikni oshiradi. Bunda bir yilda bitta poyezd uchun 9977,3 ming so'm iqtisod qilingan;

maxalliy ishlarga xizmat ko'rsatish uchun saralash stansiyasida manyovr ishlarini modellashtirish usuli "O'zbekiston temir yo'llari" AJning Chuqursoy saralash stansiyasida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport Vazirligining 26 may 2023 yildagi 2/3463 sonli ma'lumotnomasi). Natijada saralash stansiyasining to'planish nohiyasi uchun maxalliy poyezdlarni shakllash va jo'natishning modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan, buning natijasida shahar ichida katta xajmli avtomobillarning harakat miqdori va masofasi kamayganligi hisobiga vagonlar va konteynerlarning shahar ichida joylashgan yuk terminallarigacha yetib kelishi ta'minlanadi. Joriy etilishidan olingan iqtisodiy samaradorlik bir yilda 285000 ming so'mni tashkil etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 29 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 3 ta Scopus bazasidagi ilmiy anjumanda, 10 ta xalqaro va 16 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobasiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 72 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 29 ta maqolalar, jumladan 17 ta respublika va 12 ta chet el ilmiy jurnallarida hamda 5 ta Scopus bazasiga kiruvchi to'plamlarda nashr etilgan, 6 ta EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazasiga guvohnoma olingan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ilmiy ishning dolzarbligi va zarurligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilib, tadqiqot obyekti va predmeti tavsifi keltirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilib, uning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ilmiy tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi haqidagi ma'lumotlar, hamda chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishiga oid ma'lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning “**Saralash stansiyalarining zamonaviy holati va ular parametrlarini optimallashtirish muammolari**” deb nomlangan birinchi bobida saralash stansiyalarining texnik-texnologik parametrlari tahlil qilinib, vagonlarga ishlov berish jarayonini optimallashtirishni takomillashtirishga doir xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilgan, shuningdek saralash stansiyalari mahalliy ishlarini qurishning mavjud usullari va xususiyatlari tadqiq etilgan.

Vagonlar aylanmasi va uning tarkibiy elementlari tahlili o‘tgan yillar davomida vagonlarning harakatda bo‘lish vaqti qisqarib borishi kabi salbiy hodisa kuzatilayotganini ko‘rsatdi. Misol uchun, 2016 yilda uning ulushi 17% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib u 13% ga tenglashgan. Bunda vagonlarning texnik stansiyalardagi turib qolish vaqti aylanma (oborot) vaqtining 43% dan 49% gacha o‘shishi ro‘y berdi. Bu, o‘z navbatida, vagonlarning texnik stansiyalardagi turib qolish vaqti uzayib ketishiga olib keldi (1-rasm).



1-rasm. Vagon aylanmasi tarkibiy qismlarining yillar bo‘yicha o‘zgarishi

Qator saralash qurilmalari bilan amalga oshirilgan tahlil asosida aniqlanishicha, ishlov berilayotgan vagonlarga ishlov berish davomiyligi texnologik meyorlarining oshirib yuborilishining asosiy sababi saralash tepaligining ayrim parametrlari, ya‘ni balandligi va profilining talab etilgan sharoitlarga nomuvofiqligidir.

Temir yo‘l ishini tavsiflab keladigan asosiy ko‘rsatkich – yuklar jo‘natish bo‘lib, u o‘tgan yil darajasiga nisbatan 17,8% ga oshgan. Ko‘rib chiqilayotgan davrda yo‘lovchilarni tashish hajmlari ham 10,1% ga o‘sgan. Yuk tashishlarni amalga oshirishda saralash stansiyalari muhim o‘rin tutib, ular vagonlarni yo‘nalishlar bo‘yicha saralash ishlarini bajarishlari lozim va buning uchun ular tegishli qurilmalar – tepaliklar bilan jihozlanadilar.


Yuqorida bayon etilgan fikrlar innovasion texnologiyalarni qo‘llagan va O‘zbekistonning mintaqaviy iqlim sharoitlarini va ishlatilayotgan harakatlanuvchi tarkib texnik parametrlarini hisobga olgan holda saralash tepaliklarini loyihalash uslublarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Dissertasiyaning ikkinchi “**Saralash qurilmalarining parametrlarini hisoblashning uslubiy asoslari**” bobi tadqiq etilayotgan masala bo‘yicha mamlakatimizda va xorijda bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning taxliliga, resurs tejamkorlikni hisobga olgan holda saralash tepaligining profil elementlarini va


sirtini optimallashtirishga, saralash tepaligining bo‘ylama profilini matematik modellashtirishga bag‘ishlangan.

Saralash tepalikning bo‘ylama profilini tepalik cho‘qqisi, tezlanish va oraliq uchastkalari, tormoz pozitsiyasining uchastkasi, strelkali zona va hisobiy nuqtadan tashkil topgan gravitasion qurilma ko‘rinishida tasavvur qilish mumkin. Gravitasion energiyaning harakatni kinetik energiyasiga aylanishi tezlanish uchastkasida sodir bo‘lib, bunda qiya joylashgan yo‘lning to‘g‘ri chiziq trayektoriyasidan farqli har qanday berilgan trayektoriyaga ega bo‘lishi mumkin.

Ushbu tarzda, bo‘ylama profil elementlari dumalashning yuqori tezlanish egriligi – braxistoxron ko‘rinishida bajarilgan, vagonning dumalash trayektoriyasi bir muncha ahamiyatga egadir. Braxistoxron – sikloidning o‘girilgan yoyi ASB ko‘rinishida bo‘lib,  $\varphi$  doirasining burilish burchagi 0 dan  $2\pi$  gacha o‘zgarganda, sirapanishlarsiz yo‘naltiruvchi to‘g‘ri chiziq AEB bo‘yicha, dumalanishida  $r$  radiusli doirani amalga oshirganda hosil bo‘ladi (2–rasm). Sikloidning istalgan uchastkasi braxistoxron bo‘lishi mumkin, ya‘ni A nuqtadagi boshidan C (C', C'') nuqtaning oxirigacha.



2-rasm. Eng tez tushib kelish egri chizig‘i





3-rasm. Giperbolik paraboloid

Vagonning og‘irlik kuchi ta‘sirida AS egri chizig‘i yoki uning istalgan qismi (masalan, A‘C‘) bo‘yicha tushib kelishi egri chiziqning uchlarini birlashtirib turgan shu kabi to‘g‘ri chiziqdan tushishga nisbatan tezroq ro‘y beradi, chunki braxistoxrona bo‘ylab tushish tezligi hamisha qiya to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tushishga nisbatan kattaroq bo‘ladi. Saralash tepaligi bo‘ylama profilini shakllantirish uchun manfiy Gauss egriligiga ega bo‘lgan qobiqlardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Manfiy Gauss egriligiga ega bo‘lgan qobiqlar deb tepaga bo‘rtik ko‘rinishli parabola bilan berilgan  $2a$  va  $2b$  tomonlariga ega,  $2a$  tomon ustidagi  $f_1$  ko‘tarish strelasi bo‘lgan, hamda pastga bo‘rtik parabolali,  $2b$  tomoni ustidan  $f_2$  osilish strelasiga ega bo‘lgan, giperbolasimon yuzga bo‘ylab chizilgan qobiqlarga aytiladi (3-rasm).

Giperbolik paraboloidning umumiy ko‘rinishdagi yuzaning tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:


$$z = f_1 \left( \frac{x}{a} \right)^2 - f_2 \left( \frac{y}{b} \right)^2 \quad (1)$$



4-rasm. Ikki xil – musbat (a), ham manfiy (b) egrilikka ega yuzalar


Egrilik belgisi egrilik radiuslari markazlarining yuzaga nisbatan joylashishiga bog‘liq. Markazlar uning bir tomonida joylashganida,  $K$  musbat qiymatga, har ikki tomonida joylashganida esa – manfiy qiymatga ega (4-rasm).

Egrilik shoxobchalari bo‘lgan parabolaning siljishi tufayli hosil bo‘lgan salbiy yuzaga odatiy misol qilib parabola bo‘ylab yuqoriga intilgan, shoxlari pastga qaragan giperbolik paraboloidni keltirish mumkin (5-rasm).



**5-rasm. Giperbolik paraboloid:** 1 – uchi yuqoriga qaragan parabola (hosil qiluvchi); 2 - uchi pastga qaragan parabola (yo‘naltiruvchi); 3 – to‘g‘ri generatorlar; 4 – makoniy to‘rtburchak – gipar


Vagonlar va uzilmalarning tepalik yuzasi bo‘ylab tez sirg‘alib tushishini ta‘minlash uchun giperbolik paraboloid tarzida taklif etilib, uchi pastga qaragan parabola (5–rasm) bu yo‘naltirgich bo‘lib, u braxistoxrona bilan almashtiriladi, yakunda saralash tepaligi yuzasini loyihalash uchun manfiy Gauss egriligiga ega bo‘lgan qobiqlar olindi (6–rasm).




**6-rasm. Manfiy Gauss egriligiga ega bo‘lgan qobiqlar**

Saralash tepaligini loyihalashtirish uchun braxistoxrona egar nuqtasidan olingan qobig‘ining yarmini (saralashni chapdan-o‘ngga yo‘naltirish uchun – chap yarmini, o‘ngdan chapga yo‘naltirish uchun esa – o‘ng yarmini) tanlaymiz.

Amaldagi meyorlarga muvofiq tutamdagi yer polotnosining ko‘ndalang profilini 0,02 qiyalik bilan bir tushishli yoki ikki tushishli qilib jihozlash zarur (7-rasm).



**7-rasm. Saralash parki yo‘llar bog‘lamining ko‘ndalang profili**




**8-rasm. Saralash parki yo‘llar bog‘lamining bo‘ylama profili**

Tutamning ko‘ndalang qiyalikka ega bo‘lishiga har bir saralash yo‘lida tutam strelkasidan so‘ng bo‘ylama profil qiyaliklarini o‘zgartirish (ballast prizmasi qalinligini o‘zgartirish hisobiga) bilan erishiladi. Ko‘rinib turibdiki, maksimal ko‘ndalang qiyalikka tutamning eng chekka yo‘llarini, mos ravishda yo‘l qo‘yiladigan maksimal va minimal bo‘ylama qiyaliklar bilan loyihalashtirish sharti orqali erishiladi, ya‘ni  $i_{sz1} = 2,5 \%$  va  $i_{sz8} = 1,5 \%$  (8-rasm).

Bir necha qismlardan, ya‘ni bir necha yuzalardan tashkil topgan saralash tepaligi yuzasining matematik modelini quramiz. Umumiy yuza sifatida to‘g‘ri chiziqli yuzani olamiz. U sathga izometrik bo‘lib hisoblanadi, ya‘ni sath (yassilik) o‘z masofasi va burchagini saqlab qolgan holda F yuzaga o‘ta oladigan qilib aks ettirilishi mumkin.

OXY sath ustidagi yuzani bir qiymatli F proyektiv yuza sifatida ko‘rib chiqamiz. Bu holda OXY sath – bu tepalikning eng quyi qismi orqali o‘tadigan sath bo‘lib, OZ o‘qi esa unga perpendikulyar bo‘lgan o‘q deb qabul qilingan.



9-rasm. Koordinatalar tizimidagi F yuzaning ko‘rinishi

F yuzaning qismlarini quyidagi tartibda ajratib, uni quyidagicha taqdim etish mumkin (9-rasm):

$$F = \begin{cases} F_1 \\ F_2 \\ F_3 \\ F_4 \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda:

$$F_1 = \begin{cases} x = v_1 & -\infty < v_1 < \infty \\ y = u_1 & -\infty < u_1 < 0 \\ z = H & H \in \text{cons} \end{cases} \quad F_2 = \begin{cases} x = v_2 & -\infty < v_2 < \infty \\ y = -u_2 + p & 0 < u_2 < u_0 \\ z = a \cdot e^{-bu_2^2} + q \end{cases} \quad (3)$$

$$F_3 = \begin{cases} x = v_3 \\ y = \frac{k}{\sqrt{2}}(u_3 + \sin u_3) \\ z = \frac{k}{\sqrt{2}}(1 - \cos u_3) \end{cases} \quad F_4 = \begin{cases} x = v_4 & -\infty < v_4 < \infty \\ y = u_4 & 0 < u_4 < \infty \\ z = 0 \end{cases}$$

$F_1$  bu holda yuzga deb qaraladi. Birinchi navbatda ana shu nuqtadagi yuzaga nisbatan normal vektorini topamiz.

$$F_2 : \begin{cases} \vec{r}_{v_2} = \{1:0:0\} \\ \vec{r}_{u_2} = \{0:1:-2abu_2 \cdot e^{-bu_2^2}\} \end{cases} \quad F_3 : \begin{cases} \vec{r}'_{v_3} = \{1:0:0\} \\ \vec{r}'_{u_3} = \left\{0: \frac{k}{\sqrt{2}}(1 + \cos u_3) : \frac{k}{\sqrt{2}}(\sin u_3)\right\} \end{cases}$$

Shundan foydalanib, normal vektorni aniqlanishiga muvofiq:

$$\vec{n}_{F_2, \gamma_2} = \left[ \vec{r}_{v_2}, \vec{r}_{u_2} \right], \quad \vec{n}_{F_3, \gamma_2} = \left[ \vec{r}'_{v_3}, \vec{r}'_{u_3} \right] \quad (4)$$

Vektorlar normallari  $\vec{n}_{F_2, \gamma_2}$  va  $\vec{n}_{F_3, \gamma_2}$  o‘zaro teng bo‘lishlari uchun,  $\vec{r}_{v_2}$  va  $\vec{r}'_{v_3}$  vektorlari tengligidan foydalanib, quyidagi tenglik bajarilishi talab etiladi:  $\vec{r}_{u_2} = \vec{r}'_{u_3}$ . Bundan foydalanib,  $\gamma_2$  to‘g‘ri chiziq tenglamasini topish mumkin. Bunda:

$$\begin{cases} \frac{k}{\sqrt{2}}(1 - \cos u_3 + \sin u_3) = 1 \\ \frac{k}{\sqrt{2}}(-1 + \cos u_3 + \sin u_3) = -2abu_2 \cdot e^{-bu_2^2} \end{cases} \quad (5)$$

Tenglamalar tizimidan:

$$\begin{aligned}\frac{k}{\sqrt{2}}(1 + \cos u_3) &= 1 \\ \cos u_3 &= \frac{\sqrt{2}}{k} - 1 \\ u_3 &= \arccos\left(\frac{\sqrt{2}}{k} - 1\right)\end{aligned}\quad (6)$$

$u_3$  qiymatini (5) tenglamalar tizimidagi (2) tengligiga qo'yish bilan quyidagi tenglamalarni olamiz:

$$\begin{aligned}2abu_2 \cdot e^{-bu_2^2} &= \frac{k}{\sqrt{2}} \sin u_3 \\ 2abu_2 \cdot e^{-bu_2^2} &= \frac{\sqrt{2}}{k} \sqrt{1 - \left(\frac{\sqrt{2}}{k} - 1\right)^2} \\ u_2 \cdot e^{-bu_2^2} &= \frac{k}{2\sqrt{2}ab} \cdot \sqrt{\frac{2}{k^2} - \frac{2\sqrt{2}}{k}}\end{aligned}\quad (7)$$

uni soddalashtirib, quyidagicha yozib olamiz:

$$u_2 \cdot e^{-bu_2^2} = A \quad (8)$$

Bu holda  $A = \frac{k}{2\sqrt{2}ab} \cdot \sqrt{\frac{2}{k^2} - \frac{2\sqrt{2}}{k}}$  ga teng.

(7) tenglamasi b va A sonlari uchun Maple matematik paketidan foydalangan holda hal qilinadi. Maple muhitida u quyidagi tarzda kiritiladi:

- Restart
- fun:=u2exp(-b\*u2)=A;
- sole(fun, u);
- u2=natija

Endi berilgan yuza F ning har bir qismi uchun birinchi kvadratlik shaklni alohida hisoblab chiqamiz.

Yuza uchun:

$$F_1: \begin{cases} E=1 \\ F=0 \\ G=1 \end{cases} \quad I_{F_1} = du_1^2 + dv_1^2 \quad F_2: \begin{cases} E=1 \\ F=0 \\ G=1 + 4a^2b^2u_2^2e^{-2bu_2^2} \end{cases} \quad I_{F_2} = dv_2^2 + (1 + 4a^2b^2u_2^2e^{-2bu_2^2})du_2^2 \quad (9)$$

$$F_4: \begin{cases} E=1 \\ F=0 \\ G=1 \end{cases} \quad I_{F_4} = dv_4^2 + du_4^2 \quad F_3: \begin{cases} E=1 \\ F=0 \\ G=k^2(1 + \cos u_3) \end{cases} \quad I_{F_3} = dv_3^2 + k^2(1 + \cos u_3)dU_3^2$$

Yuzadagi muntazam chiziq uzunligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$l = \int_{t_1}^{t_2} \sqrt{\Pi} dt \quad (10)$$

Agar berilgan chiziq  $\tilde{\gamma}$  ni biz ko'rib chiqayotgan yuza ustida  $\tilde{\gamma}_1, \tilde{\gamma}_2, \tilde{\gamma}_3$  va  $\tilde{\gamma}_4$ , yig'indisi deb qabul qilsak, ya'ni agar biz u  $\tilde{\gamma}_{i+1}$  ( $i=1,2,3$ ) ning oxiridan boshlanadi

deb hisoblasak, bu holda to'g'ri chiziq uzunligi har bir kesim uzunliklarining yig'indisiga teng bo'ladi.

Endi quyidagi integrallardan foydalanib har bir egik chiziq uzunligini hisoblab topamiz:

$$l(\tilde{\gamma}_1) = \int_{t_0}^{t_1} \sqrt{1} dt = \int_{t_0}^{t_1} \sqrt{1} dt = t_1 - t_0; \quad l(\tilde{\gamma}_2) = \int_{t_1}^{t_2} \sqrt{1 + 4a^2 b^2 t_1^2 \cdot e^{-2bt^2}} dt;$$

$$l(\tilde{\gamma}_3) = \int_0^{a_0} k \sqrt{1 + \cos t} dt; \quad l(\tilde{\gamma}_4) = \int_0^{t_4} \sqrt{1} dt = t_4.$$
(11)

Urinma yuza yo'nalishidagi normal egrilik  $\tau(du, dv)$ :

$$K_N = \frac{Ldu^2 + 2Mdudv + Ndv^2}{Edu^2 + 2Fdudv + Gdv^2}$$
(12)

bu yerda E, F, G va L, M, N – kvadratik shakl koeffitsiyentlari.

$$L = \frac{(r_{uu}, r_u, r_v)}{\sqrt{EG - F^2}}, \quad M = \frac{(r_{uv}, r_u, r_v)}{\sqrt{EG - F^2}}, \quad N = \frac{(r_{vv}, r_u, r_v)}{\sqrt{EG - F^2}}$$
(13)

Agar  $\vec{a}$  yo'nalishda  $k_n=0$  bo'lsa, unda u asimptotik yo'nalish deb ataladi  $k_n = 0 \Leftrightarrow II = 0$ , shuning uchun ikkinchi kvadratik shaklni 0 (nolga) teng deb faraz qilib,  $F_3$  yuzasining asimptotik yo'nalishini aniqlaymiz.

$F_3$ , yuzasi uchun ikkinchi kvadratik shaklni topish uchun quyidagilarni aniqlab olamiz:

$$r_{u_3 v_3} = \{0:0:0\}; \quad r_{v_3 u_3} = \{0:0:0\}; \quad r_{u_3 u_3} = \left\{ 0: -\frac{k}{\sqrt{2}} \sin c: \frac{k}{\sqrt{2}} \cos u_3 \right\}$$
(14)

Tepalikdan tushirilayotgan vagon tarkibga qo'shila olishi uchun u o'zi harakatlanayotgan yo'nalishdan farqli boshqa yo'lga o'tishi talab etiladi. Vagon buni  $F_3$  yuzada amalga oshiradi. Harakatlanish yo'li geodezik chiziq hisoblanib, o'z navbatida, u eng qisqa, shu bilan birga, o'zini yuzadagi to'g'ri chiziq kabi tutadigan chiziq bo'lib keladi. Buning uchun o'tish chizig'ini belgilab, uning formulasini quyidagi ko'rinishda taqdim etamiz:  $\{p_1 = p_1(t), p_2 = p_2(t)\}$ . Bu holda

quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:  $p_1 = v_3$ ,  
 $p_2 = u_3$ .

